

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONSMASOFAVIY TA'LIMDA TALABALAR TEXNIK IJODKORLIK
QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH

To'raqulova Marjona Qiyom qizi
Asanova Zarina Ahmadovna

Bugungi kunda ta'lism oluvchilarning mustaqil tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va topish, ijodkorlik qobiliyatlarini, kreativ fikrlash hamda raqamli yoki virtual ta'lism ko'nikmalarini, aqliy mehnat madaniyatini, mustaqil bilim olish malakalarini rivojlantirish zamonaviy masofaviy ta'limgning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Umuman olganda, oliy ta'limgning masofaviy ta'lism tizimida ijodkorlik tadqiqotning yangi mavzusi emasdek tuyuladi, biroq ilgari talabalarining ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish masalalarini ilmiy jihatdan o'rganish uchun alohida ehtiyoj yo'q edi. Hozirgi kunda vaziyat tubdan o'zgardi. Masofaviy ta'limda o'qib bitirgan kadrlarning intellektual salohiyatiga, ijodkorlik qobiliyatlariga tobora ko'proq ahamiyat berilmoqda. Hozirda ijodiy fikrlash, mavjud muammoga o'zgacha uslub asosida kreativ yondashish deyarli har qanday sohada muhim ahamiyatga ega.


Amerikalik psixolog Karl Rojers shunday degan edi: "Agar zamonaviy jamiyatda umumiy rivojlanishdagi eng kichik o'zgarishlarga konstruktiv munosabat bildiradigan odamlar bo'lmasa, biz halok bo'lishimiz mumkin va bu, bizga ijodkorlikning yetishmasligi uchun hammamiz to'laydigan badal bo'ladi" [3].

Ijodkorlik bu – ijtimoiy sub'ektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingen faoliyatining natijasi. Ijodkorlik qobiliyatini barcha insonlarda, xususan, har qanday iqtidorli talabada uchratish mumkin - shunchaki uni yuzaga olib chiqa olish va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lish kerak. Amerikalik yozuvchi Oliver Vendel aytganidek: "Yangi fikr orqali kengaygan inson miyasi hech qachon avvalgi o'lchamiga qaytmaydi" [1; 2 b].

Bu yerda "ijodkorlik" tushunchasini talqin etishda uning ko'p qirraliligiga e'tibor qaratish lozim. Chunki ijodkorlik tushunchasiga "faollik", "faoliyat", "jarayon", "faoliyat ko'rinishi", "faoliyat tipi", "faoliyat shakli" sifatida qaraladi. Uning boshqa tomoni esa "ijodiy potensial", "ijodiy qobiliyat", "ijodiy faollik", "ijodiy munosabat", "ijodiy faoliyat", "ijodiy mehnat", "shaxs ijodi" kabi tushunchalarda aks etadi [2; 12-13 b].

V.N.Drujinin, A.V.Petrovskiy, A.Matyushkin kabi psixologlar tadqiqotlarga asoslanib, ijodkorlikni (mavjud vaziyat yoki mavjud bilimlardan) tashqariga chiqishning bir turi sifatida belgilash mumkin, deb hisoblaydi. Ijodkorlik qobiliyati faoliyat davomida vujudga kelishi mumkin, ammo bu ko'zlangan maqsadga erishish bilan emas, balki faoliyat davomida yangi mahsulotni yaratish bilan bog'liq. Ushbu yangi mahsulot ijodning haqiqiy natijasidir [6].

Ijodkorlik nazariyasining asosiy qoidalari L.S.Vigotskiy, D.B.Bogoyavlenskaya, V.V.Semakova, P.V.Alekseyevlarning ishlarida bayon etilgan va ularning ijodkorlik



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

haqidagi fikrlari quyidagi ta’rifda o‘zining yorqin ifodasini topgan: “Ijodkorlik bu natijasi yangi moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratish hisoblangan faoliyat. U shaxsda o‘zining o‘xshashi bo‘lmagan, yangiligi va noyobligi bilan farq qiluvchi mahsulot yaratishga imkon beruvchi qobiliyat, motiv, bilim va ko‘nikma mavjudligini ko‘zda tutadi” [4; 13-14 b].

Taniqli amerikalik psixolog J. Guilford, boshqacha fikrlash faqatgina ijodkor shaxslarga xos ekanligini aniqladi. Bunday fikrlashga ega odamlar o‘z kuchlarini yagona to‘g‘ri yechimni topishga yo‘naltirishmaydi, balki, iloji boricha ko‘proq variantlarni ko‘rib chiqish uchun barcha yo‘nalishlarda yechim izlashni boshlaydilar. Bunday odamlar ma’lum bir usulda biladigan va ishlataligani elementlarning yangi kombinatsiyalarini yaratishga moyildirlar yoki hech qanday umumiyo bo‘lmagan ikki element o‘rtasida aloqa o‘rnatadilar. Biroq fikrlash uslubi ijodkorlikning asosini tashkil etadi va quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- tezlik – g‘oyalarning maksimal sonini ifoda etish qobiliyati (bu holda ularning sifati emas, balki ularning miqdori);
- egiluvchanlik – turli nuqtai nazarlarni ifoda etish qobiliyati;
- o‘ziga xoslik – yangi nostandard g‘oyalarni yaratish qobiliyati (bu javoblar, umuman, qabul qilinmagan qarorlarda paydo bo‘lishi mumkin);
- to‘liqlik – bu sizning "mahsulotingizni" yaxshilash yoki unga tugallangan ko‘rinish berish qobiliyati.

Psixologiya fanlari nomzodlari V.K. Kudryasev va V. Sinelnikov insoniyat tarixi davomida keng ko‘lamli tarixiy yoki madaniy materiallar (falsafa tarixi, ijtimoiy fanlar, san‘at va amaliyot) asosida rivojlangan quyidagi universal ijodiy qobiliyatlarini aniqladilar:

1. Badiiy realizm – bu shaxsiyat to‘g‘risida aniq tushunchaga ega bo‘lmasdan va uni mantiqiy kategoriylar tizimiga qo‘shilishidan oldin butun ob‘ektini rivojlantirishning muhim, umumiyo tendensiyasi yoki modelini obrazli anglash.
2. Barcha qismlarni oldindan ko‘rish qobiliyati.
3. Ijodiy qarorlarning ustun vaziyat va o‘zgaruvchan xususiyati nafaqat tashqi tomondan alternativalarni tanlash, balki o‘zi uchun alternativalarni yaratish qobiliyatidir.
4. Eksperiment – bu odatdagи vaziyatlarda ob‘ektlarning yashirin tabiatini ochib beradigan sharoitlarni ongli ravishda va maqsadga muvofiq ravishda yaratish qobiliyati, shuningdek, ushbu sharoitda ob‘ektlarning "xatti-harakatlarini" kuzatish va tahlil qilish qobiliyatidir [4].

Ijodkorlik mutlaqo qobiliyatsiz, iqtidorsiz (ruhiy va fiziologik jihatdan normal kishilar nazarda tutilyapti, albatta) va haddan tashqari ijodkor inson ham yo‘q. Har bir kishi muayyan qobiliyatga ma’lum darajada moyil bo‘ladi. Bunday qobiliyatlar qulay ijtimoiy sharoitlar mavjudligidagina imkoniyatdan kreativ voqelikka aylanishi mumkin [5].

Kreativlik qobiliyati muayyan genetik imkoniyatning ijtimoiy va tarixiy sharoitlar bilan o‘zaro muqarrar hamda murakkab ta’siri orqaligina vujudga keladi. Bularning

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

hammasi ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq muhit yoki ta'lim-tarbiya mahsuli bo'l mish inson faoliyati mohiyatidan ajralmas, uning me'yoriy-ijodkorlik mehnati samarasi bilan izohlanadi [3; 30-31 b].

Mashhur olim G.Mendelning fikricha, muayyan kreativlik qobiliyatining "nishonalari" har bir kishida bor, biroq ularning rivojlanishi ijtimoiy ishlab chiqarishning muayyan sharoitlarida tarkib topgan ijodkorlik mehnatiga bog'liqligini alohida ta'kidlab o'tgan edi [2; 31 b].

Hozirgi vaqtida "ijodkorlik" tushunchasining umumiyligi qabul qilingan ta'rifi yo'q. Adabiyotlarda ijodkorlikning: ijodkorlik umumiyligi rivojlanish shakli, mehnat shakli; yangilik yaratish jarayoni sifatida, faoliyatning ichki motivatsiyasi hamda dunyoqarash sifatida beshta asosiy ta'rifi mavjud.

Ijodkorlik qobiliyati nasldan-naslga o'tadimi? Uzoq yillar ko'pgina olimlar bu nasldan-naslga o'tuvchi xudo bergen ne'mat deb hisoblashar edi. Shuning uchun agar bola oddiy oilada tug'ilgan bo'lsa, undan qaysidir faoliyatda yuksak muvaffaqiyatlar kutishga o'rin yo'q. Yetuk kompozitorlar (Baxlar oilasi), rassomlar (Rerixlar oilasi), yozuvchilar yaratuvchi – xudoga nisbatan aytildi (Dyuma oilasi), olimlar (Kyurilar oilasi)ning oilaviy dinastiyasi hammaga ma'lum. Biroq tarixda yetarli ma'lumot olmagan va o'qimagan oilalardan chiqqan yetuk yaratuvchilar ham ma'lum. Shu bilan birga olimlarda ijodkorlik qobiliyatları naslga hech ham aloqasi yo'q va insonning hayoti davomida o'zini rivojlantirish yo'li bilan shakllanadi degan fikr yuzaga keldi. Demak, ijodkorlik faoliyatining ayrim nishonalari nasldan-naslga o'tadi va bunga oilaviy dinastiylar misol bo'ladi. Shu bilan birga, shaxsning butun hayoti davomida o'zining rivojlantirishi ijodkorlik faoliyatida yuksak natijalarga erishishning asosiy sharti hisoblanadi [7; 10-11 b].

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, ijodkorlik to'g'risida juda ko'p turli xil qarashlar mavjud, ammo shunga qaramay, olimlar bitta narsaga qo'shilishadi – ijodkorlikning asosiy tafsifi mahsulotning asosiy yangiligi, ya'ni kreativ fikrlash, tubdan yangi yechimlarni izlash bilan tafsiflanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Сусоколова И.А. Трудности тестирования креативности: Материалы IV Всероссийского съезда Российского психологического общества. М., 2007. – С. 221.
2. Suyunov H. Savol-topshiriqlar ustida ishlash-ta'limiy vosita sifatida. Pedagogik mahorat. – 2006. – №2. – B. 9-12.
3. Татур Ю.Г. Компетентность в структуре модели качества подготовки специалистов // Высшее Образование сегодня. 2004. - № 3. - С.20-26.
4. Tunik Э.Е. Ijodkorlik diagnostikasi. Torrance testi. Uslubiy ko'rsatma. SPb.: Imaton, 1998

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

5. To'raqulova M.Q Iqtidorli talabalar bilan ishlash jarayonini loyihalash. "Zamonaviy ishlab chiqarishda muhandislik va texnologik muammolarning innovatsion yechimlari" xalqaro ilmiy anjuman materiallari. 3-tom. Buxoro, 2019.
6. To'raqulova M.Q. Oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarning texnik ijodkorlik qobiliyatlarini takomillashtirish mexanizmi va modeli. O'zMU xabarları. № 1/6. Toshkent, 2021. 214-217 b.
7. To'raqulova M.Q. Iqtidorli talabalar bilan ishlash masalalari "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limning dolzarb muammolari", Ta'lim muassasalararo ilmiy-amaliy konferensiya. Buxoro, 2019. 203-205 b.)
8. To'raqulova M.Q. Oliy ta'lim iqtidorli talabalarining mustaqil izlanuvchanlik qobiliyatlari."Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"ga bag'ishlangan "Fan va ta'lim-tarbiyaning dolzarb masalalari" mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Nukus, 2019. 397-398 b.
9. To'raqulova M.Q."Iqtidorli talabalar bilan ishlashda ta'lim turlari va vositalarini tanlash". Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 5-son, Buxoro 2019-yil. 104-108 b
10. To'raqulova M.Q."Samarqand viloyatini innovatsion rivojlantirish: muammo va yechimlar" mavzusida respublika Ilmiy - amaliy anjumani materiallari Samarqand – 2020. – 248 b
11. To'raqulova M.Q. Talabalar texnik ijodkorligini shakllantirishda shaxs kreativligi va kognitivligi. O'zMU xabarları. № 1/3/1. Toshkent, 2022. 214-217 b
12. To'xtayeva Z.Sh, Axmetjanov M. Didaktik vositalar o'quv qo'llanmasi // – Toshkent: "Paradigma", 2018. – 132 b.
13. To'raqulova M.Q. Talabalar texnik ijodkorligini rivojlantiruvchi dars ishlanmalari dasturiy ta'minoti Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi guvohnomasi. № DGU 18679. Qayd sanasi 08.10.2022 y.
14. To'raqulova M.Q. Iqtidorli talabalar bilan ishlashda ta'lim turlari va vositalarini tanlash. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. Buxoro. 2019. №5. 104-108 b
15. To'raqulova M.Q. Iqtidorli talabalarning texnik ijodkorligini shakllantirishda pedagogning ilmiy-ijodiy tayyorgarligi.
16. To'raqulova M.Q. Neft va gazkimyo sanoati texnologiyasiga oid izohli texnik lo'g'at. O'quv qo'llanma. 2022.
17. To'raqulova M.Q. Oliy ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalar. International Scientific-Practical Distance Conference «The 21st Century Skills for Professional Activity» /VII Scientific-methodical journal of «scientific progress». 2021. pages 39-40.
18. To'raqulova M.Q. Oliy ta'limda iqtidorli talabalar bilan ishlashning psixologik-pedagogik asoslari. "Psixologiya" ilmiy jurnal № 2. Buxoro, 2022. 164-167 b.